

NOGIRONLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNI RETROSPEKTIF TAHLILI



Axmedova Shaxnoza Asatullayevna

Guliston davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan – nogiron bolalarni himoya qilishning O‘zbekiston Respublikasi retrospektif qonunchiligida ko‘zda tutilgan jihatlarini tahlil qilishga harakat qilindi. O‘zbekistonda nogiron bolalarning davlat himoyasiga olinishi masalalari ushbu masalada qabul qilingan xalqaro hujjatlar asosida qanday amal qilayotgani masalasi, shuningdek, qonunlarning tarixiy taraqqiyoti yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Nogiron, ijtimoiy yordam, demokratiya tamoyillari, “O‘zbek modeli”, “nou-xau”, kuchli ijtimoiy siyosat.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvarda qabul qilingan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-modda – “Asosiy tushunchalar”da belgilanishicha, nogiron bola deb, – jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo‘lganligi tufayli turmush faoliyaticheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron deb topilgan bolaga aytiladi. Nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish jamiyatdagi ijtimoiy ishning muhim va dolzarb masalalardan biridir. Nogironlar jamiyatda ijtimoiy jihatdan eng zaif qatlam hisoblanib, ularning davlat tomonidan himoyaga olinishi va qo‘llab-quvvatlanishi, bunday davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlab beradi. “Lashkarning harakatlanish sur‘ati yaradorlarni ortgan karvonning tezligidan baland bo‘lishi mumkin emas. Aks holda, bu lashkarning, qanday maqsadga intilmasin, qanchalar chiranib kuchanmasin, baribir ishi o‘ngidan kelmaydi”. [3.55.]

TADVIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Qolaversa, xalqaro tan olingan demokratiyaning tamoyillaridan biri, shu bilan birga davlatimizning birinchi prezidenti I.A. Karimov tomonidan 1993-yilda ishlab chiqilgan va xalqaro hamjamiyat tomonidan “O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning “o‘zbekona yo‘li”, yoxud, Islom Karimovning kashfiyoti.

– “nou-xau”si deb e‘tirof etilgan “O‘zbek modeli”dagi besh tamoyilning biri ham – nogironlarni, qariyalarni, aholining kam ta‘minlangan qatlamini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash – kuchli ijtimoiy siyosat masalasidir.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra bugungi kunda yer sharida bir milliard nogiron yashaydi, shu jumladan, O‘zbekistonda ularning soni 700 ming kishini tashkil qiladi. 16 yoshgacha nogiron bolalar taxminan 13%. Ular jamiyatning kundalik – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishda turli xil qiyinchiliklariga duch keladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning 23-moddasida va maxsus qonunlarda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarni o‘qitish, tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarini tashkil etish ta‘kidlab o‘tiladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, O‘zbekiston MDH davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib nogironlik muammosiga e‘tibor qaratdi va 1991 yildayoq “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi va bu qonun boshqa respublikalar uchun shunday qonunlarning qabul qilinishida namuna vazifasini o‘tadi. Atrof-muhitni nogironlar imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslash haqidagi ushbu Qonun bandlarining amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida “Atrof-muhitni nogironlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda loyihalashtirish to‘g‘risida”gi hujjat qabul qilindiki, bu borada ham respublikamiz MDH davlatlari orasida peshqadamlik qildi. Respublikamizda nogironlar reabilitatsiyasi bo‘yicha Davlat dasturi ishlab chiqildi. O‘zbekistonda nogironlarning ijtimoiy muhofazasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari bu sohada butun jahonda qabul qilinib, amalda bo‘lgan hujjatlarga

asoslanadi. Avvalambor, bu BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yilning 20 noyabrida qabul qilingan hamda 1990 yilning 2 oktabridan boshlab kuchga kirgan «Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»dir. Ma'lumki bu jahon miqyosidagi hujjat O'zbekiston tomonidan birinchilar qatorida ratifikatsiya qilingan.

Nogironlikka ega shaxslarning ijtimoiy muhofazasini belgilab bergan yana bir muhim hujjat O'zbekiston Respublikasining 1996 yilning 29 avgustida qabul qilingan "Fuqarolar sog'lig'ini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunidir. Hayot talablaridan kelib chiqqan holda bu Qonunning 1999 yil 15 aprelda va 2001 yil 12 mayda o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan yangi variantlarining qabul qilinishi bu masalaga respublika hukumatining naqadar katta ahamiyat berayotganining yorqin dalilidir. Qonunning 6-moddasiga muvofiq joylardagi davlat xokimiyati organlarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi vazifalaridan biri nogironlarning reabilitatsiyasini amalga oshirish bilan shug'ullanadigan muassasalarni tashkil qilish hamda ularning faoliyatini ta'minlashdan iborat. Qonunning "Nogironlarning huquqlari" deb nomlangan 22-moddasida nogironlar, shu jumladan, nogiron bolalar qanday huquqlarga ega ekanlari aniq ko'rsatib berilgan. Ular tibbiy-ijtimoiy yordam olishga, reabilitatsiyaning hamma turlariga, dori-darmon, protez-ortopedik buyumlar, harakatlanish vositalariga imtiyozli shartlarda ega bo'lishga, shuningdek kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorgarlikni o'tashga haqlidirlar. Nogironlar sog'likni saqlash, mehnat, aholining ijtimoiy muhofazasi bo'yicha davlat tizimlariga qarashli muassasalarda bepul tibbiy-sanitariya yordamini olish, uy sharoitida parvarish olish huquqiga egalar.

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida O'zbekistonda olib boriladigan davlat siyosati nogironlikka ega bo'lmagan shaxslar o'z huquqlarini qanday amalga oshirsalar, nogironlar ham xuddi shunday huquqqa ega bo'lib, to'laqonli, munosib hayot kechirishlariga qaratilgan.

Nogironlikka ega bolalarning ta'lim olishlari uchun ham butun imkoniyatlar yaratilmoqda. Respublikamizda bu masalaning normativ-huquqiy asoslari ham yaratilgan. Bu borada ham O'zbekistonda nogironlikka ega bolalarning ta'lim olishga bo'lgan huquqiga tegishli xalqaro hujjat – 2000 yil 26-28 aprelda Dakarda (Senegal) Ta'lim bo'yicha Butunjahon forumda qabul qilingan "Ta'lim hamma uchun" harakati birinchilardan bo'lib ratifikatsiya qilindi. Bu hujjatga ko'ra, ta'lim sohasida jahondagi hamma bolalarga, shu jumladan, kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan, nogironlikka ega bolalarga ham yuqori sifatli boshlang'ich ta'lim olish imkoniyatini yaratish lozimligi ta'kidlangan. Buning uchun ta'lim sohasida xavfsiz, sog'lom, inklyuziv va resurslar bilan oqilona ta'minlangan shartsharoitlarning yaratilishi bosh o'ringa qo'yiladi.

"Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 2006 yil 13 dekabrda 61/106-rezolyusiyasi bilan qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" hamda "Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga Fakultativ protokol" xalqaro hujjatlarning asosiylari hisoblanadi.

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun (2008 yil) hamda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2015 yilning 17 iyunida qabul qilingan (Adliya vazirligidan 2685-son bilan ro'yxatdan o'tgan) "Aqliy va jismoniy nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni maxsus ta'lim muassasasidan boshqasiga yoki inklyuziv sharoitlarida ta'lim olishi uchun umumta'lim muassasasiga o'tkazish to'g'risida"gi Nizom O'zbekiston Respublikasida har bir bolaning yashash, rivojlanish, ishtirok etish, himoyalashida teng huquqligini kafolatlaydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, nogiron bolalarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlari qonun hujjatlarida aks ettirilishi borasida davlatimiz tomonidan ancha ishlar amalga oshirilgan hamda bu yo'ldagi ishlar uzluksiz davom ettirilmoqda. Va, hozircha hal qilinmagan muammolarga qaramay, Respublikamiz nogiron bolalarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish borasida jahon standartlari tomonidan ishonch bilan qadam qo'yimoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya – Toshkent.: Baktria press, 2013. – B. 56.
2. "O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonun. Vedomosti Verxovnogo Soveta RUz. 1992, № 2. – B. 78.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 01 avgustdagi F-5006- son "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimni yanadata komillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

4. Levitin Leonid., Karlayl Donald S. Islom Karimov – yangi O'zbekiston Prezidenti. – Toshkent., 1996. – B. 55.

5. Inoyatov U. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida ijtimoiy inklyuziyaning asosiy jihatlari va istiqbollari. Mavzu bo'yicha xalqaro konferentsiya: Ijtimoiy inklyuziya: bolalarni ijtimoiylashtirish bo'yicha yangi ko'rsatmalar. – Toshkent, 2017-yil.